

## 20. Ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish

Yondosh mavzu:  
Farg'ona viloyati

Tenglamalar,  
amallar tartibi



1. Tenglamalarni yeching va bu shaharlarga qanday hunar turlari xosligini aniqlang.

Marg'ilon

$$x - 36\,543 = 29\,700$$

Rishton

$$100\,000 - y = 45\,367$$

Pichoqchilik  
145 367

Ipakchilik  
66 243

Zardo'zlik  
65 243

Kulolchilik  
54 633

Misgarlik  
65 367



2. Sxemalarni to'ldiring. Ularni amallar tartibiga ko'ra hisoblang.

$19\,100 - 5\,500 : 11 + 14\,960$	$63\,000 : 7 - 4\,935 + 1\,400 : 20$

## 20. Ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish



3. To'quvchi ikki bo'lak shoyi to'qidi. Qaysi bo'lakning yuzi katta?



4. Marg'ilondagi to'qimachilik fabrikasiga 4 kun ichida 258 ta sayyoh keldi. Birinchi kun 49 nafar, ikkinchi kun birinchi kundagiga qaraganda 18 nafar ko'p, lekin uchinchi kundagidan 27 nafar kam sayyoh keldi. Fabrikaga to'rtinchi kuni nechta sayyoh kelgan?



5. Santimetrlarda ifodalang.

To'pda 12 m shoyi bor.

To'pning eni 3 dm 3 cm.

Yog'och to'sinning uzunligi 3 m 64 cm.

Tasmaning uzunligi 1 m 6 dm 2 cm.



6. Shoyi dasturxonning uzunligi 2 m 32 cm, eni undan 2 marta kichik. Dasturxonning chetlariga tikish uchun necha metr popuk sotib olish kerak?



7. Bo'sh joylarni to'ldiring va daftaringizga ko'chiring.

$$300 \text{ cm} = \boxed{\phantom{00}} \text{ dm} = \boxed{\phantom{00}} \text{ m}$$

$$790 \text{ cm} = \boxed{\phantom{00}} \text{ dm} = \boxed{\phantom{00}} \text{ m } \boxed{\phantom{00}} \text{ dm}$$


$$987 \text{ cm} = \boxed{\phantom{00}} \text{ dm } \boxed{\phantom{00}} \text{ cm}$$

$$456 \text{ cm} = \boxed{\phantom{00}} \text{ m } \boxed{\phantom{00}} \text{ dm } \boxed{\phantom{00}} \text{ cm}$$

## 20. Ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish



8. Qaysi rangdagi kvadratlar katta yuzani egallaydi?



9. Ifodalar yozing va ularning qiymatlarini hisoblang.

- 59 va 42 sonlari yig'indisini 7 ga ko'paytirish.
- 102 va 58 sonlari ayirmasini 4 ga bo'lish.
- 67 va 8 sonlari ko'paytmasidan 245 ni ayirish.
- 708 sonidan 63 va 7 sonlari bo'linmasini ayirish.



10. Naqsh kvadratlar va beshburchaklardan iborat. Hammasi bo'lib 37 ta uchi bor. Naqshda nechta kvadrat bor?



11. O'zbekistonda ishlab chiqariladigan ipak matolar ko'pincha abr matolar deyiladi. Hisoblang va bu nom nimadan kelib chiqqanini aniqlang.

$$9\ 904 - 4\ 539 - (78\ 009 - 77\ 928 + 1\ 578) - 3\ 679$$

**U** 3706

**B** 81

**U** 1 659

**T** 27

**L** 5 365



12. Xonatlasdan yubka tikish uchun 12 metr, nimcha uchun undan 4 marta kam, ko'ylak uchun esa yubka va nimchaga birgalikda qancha sarflansa, shuncha mato kerak bo'ladi. Bu kiyimlarni tikish uchun jami qancha xonatlas kerak bo'ladi?